



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro :

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1.	O.X.Xamidov	- Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	D.Sh.Yavmutov	- Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor, a‘zo;
5.	A.T.Jurayev	- Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n, dotsent, a‘zo;
6.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
7.	B.N.Navruz-Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
8.	A.J.Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a‘zo;
9.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
10.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
11.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,a‘zo;

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	B.N.Navruz- Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
5.	A.J. Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a‘zo;
6.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
7.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
8.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,
9.	Z.S.Nurov	- Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, i.f.f.d,
10.	M.H.Qilichov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
11.	K.Sh.Yuldashev	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
12.	I.O.Davronov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
13.	O.O.Radjabov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
14.	E.A.Farmonov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida moliyalashtirilayotgan ALM-202403110241-raqamli “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida tashkil etildi.

- Yangi ziyorat turistik marshrutni elektron kartasini ishlab chiqish;
- “Safed Bulon yoki Shoh Jarir” ziyorat turistik marshrutini xalqaro darajadagi kooperatsiya asosida rivojlantirish (Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Saudiya Arabistoni);
- Tarixiy shaxslar nomlarini aniqlashtirish, ularni qabrlari atrofini ziyoratgoxlarga aylantirish va mavjudlarini xalqaro standartlarga moslashtirish (Yangiqo'rg'on tuman Qorapolvon qishlog'idagi Qorapolvon ziyoratgoxi, Yangiqo'rg'on tuman Yorilgan MFY atrofidagi Abdulloh burug' ziyoratgoxi);
- Yangi ziyorat turistik marshrutdagi ziyoratgoxlarni ko'pchilikka tanitish maqsadida bukletlarini tayyorlash, elektron veb-saytlarini yaratish zarur.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ishlab chiqilishi kutilayotgan yangi turistik-ziyosat marshrutni mutlaqo yangi ko'rinishdagi raqamli platforma asosida yaratilishi lozim. Bu marshrutni ochilishi bilan bir qator yangi ziyoratgoxlar qurilishi asosida Farg'ona vodiysida yangi turistik ziyorat obyektlari rivojlanadi. Shu bilan shuni aytish mumkinki, “Safed Bulon yoki Shoh Jarir” ziyorat-turistik marshrutni doirasida Namangan viloyatida ko'plab manzilgoxlar mavjud va ularni aniqlashtirish, manzilli ma'lumotnomalarini tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Shunday obyektlardan biri Namangan viloyati Pop tumani To'da qishlog'i hududida joylashgan “G'oyib Yoronlar” jome masjididir. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Safed Bulondagi Qirg'in Masjiddan yaralangan va omon qolgan sahoba va tobeinlarlar shu joyda to'planishga ahd qilishgan va shu joydan taxminan Sirdaryoning kechuv joyi bo'lgan. Shu joyda bir erkak va ikki ayol tiriklayin g'oyib bo'lgan degan rivoyat mavjud, shu sababli bu joyni G'oyib Yoronlar deb atashgan bo'lsa ajab emas. Shu maskanda ziyoratgoh majmuasini barpo etish zarurdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori PQ-4755, 2020-yil, 19-iyun.
2. Zotova N.A. Istoriya rasseleniya tadjikov na territorii Severo-Zapodnoy Fergani. Avtoreferat disser. na sois. uch.step. k..i..n. M.2003, 14 s.
3. “Din, tarix va turizm” Qirg'izistonliklar yangi kashf qila boshlagan Safed Bulon. Uz.kloop.asiya
4. Abdulkhakimov Z. (2018). Development of regional economy with mountain recreation: in case Uzbekistan. Bulletin of Science and Practice, 4(5), 446–453. <http://doi.org/10.5281/zenodo.1246298>
5. Abdulhakimov Zuhrali Tursunaliyevich. (2019). Senior Teacher of the Namangan Engineering and Technology Institute. Scientific and analytical journal «Science and Practice» of Plekhanov University. Vol. 11. No. 1 (33) 79.

WELLNESS TURIZMDA INKLYUZIV SAYYOHLAR UCHUN SHART-SHAROITLAR: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

*Alimova Shaxnoza Oktyamovna,
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti.
Yuldashev Kamol Sharifovich
Turizm va mehmonxona xo'jaligi
kafedrasi o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: ushbu maqolada inklyuzivlik konsepsiyasining wellness turizmidagi roli yoritiladi. Wellness turizmini ijtimoiy tenglik, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulaylik, madaniy sezgirlik va raqamli imkoniyatlarga teng kirish nuqtai nazaridan baholash

orqali, uni har tomonlama inklyuziv tizimga aylantirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitiga mos yondashuvlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: wellness turizmi, inklyuziya, ijtimoiy tenglik, barqaror turizm, raqamli tenglik.

Kirish

So'nggi yillarda turizm sohasi faqatgina iqtisodiy daromad manbai emas, balki ijtimoiy integratsiya, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va hayot sifatini yaxshilash omili sifatida ko'rilmogda. Wellness turizmi — bu insonning jismoniy, ruhiy va psixologik holatini yaxshilashga yo'naltirilgan turizm shakli bo'lib, undan foydalanish huquqi barcha fuqarolarga teng taqdim etilishi lozim.


Wellness turizm sayohat davomiyligi bo'yicha eng qisqa¹, kam harajat, kasalliklarni oldini olish, asablarni tinchlantirish², sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish kabi xizmatlardan tibbiyot sohasi nomutaxassislari tomonidan bir xil sifatga ega bo'lgan xizmatlarning ko'rsatilishi, insonning salomatligi va farovonligini yaxshilash³ ehtiyojini qondiradigan turizm turidir.

Wellness turizmi 2022 yilgacha o'rtacha yillik sur'atda 7,5 foizga oshgani qayd etildi. Bu umumiy turizm uchun hisoblangan 6,4 foizlik o'sishdir. Wellness sayohatlaridan tushayotgan tushum 650.7 milliard dollarni tashkil etadi.

Global Wellness instituti hisobotlariga ko'ra, 2027 yilda wellness turizmdan tushadigan daromad 2 barobarga oshishi (1.366.6 mrd AQSH dollari) taxmin qilingan. Pandemiya davrida ushbu ko'rsatgich 350.6 milliard dollarga tushib ketgan, lekin 2022 yil hisobida ikki barovarga ko'tarilib⁴, eng ommalashgan turizm turi ekanligini tasdiqlaydi.

Xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan turar joy segmenti 2022-yilda 23,3% daromad ulushi bilan bozorda ustunlik qildi. Mashhur sayyohlik yo'nalishlarida hashamatli va yuqori darajadagi mehmonxonalar va dam olish maskanlarining tobora ko'payib borayotgani turar joy segmentining o'sishiga katta hissa qo'shmoqda. Turar joyni chodirda, karvonda yoki kampervanda, mehmonxonada, motelda, yotoqxonada, xususiy uyda (tijorat, masalan, yotoqxona va nonushta, mehmon uyi) yoki uyda qolish mumkin.

1-rasm. Global wellness turizm bozorida xizmatlar ulushi ⁵



¹ Т.А.Бурменко, Байкальский государственный университет, г. Иркутск, Российская Федерация, К ВОПРОСУ О СОДЕРЖАНИИ ПОНЯТИЯ «ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЙ ТУРИЗМ» РЕГИОНАЛЬНАЯ И ОТРАСЛЕВАЯ ЭКОНОМИКА, 2016.26(1).42-49

² <https://globalwellnessinstitute.org/what-is-wellness/what-is-wellness-tourism/>

³ Galina Romanova, Alexandr Vetitnev va Frederic Dimanche "Health and wellness tourism", Russia, 2015 y, 237

⁴ Global Wellness instituti hisobotlari asosida muallif tahlili

⁵ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/wellness-tourism-market>

Wellness faoliyati segmenti (17,2%) prognoz davrida sezilarli o'sishning guvohi bo'lishi kutilmoqda. Buni kurortlar, tana uqalashlari, meditatsiya, yoga, Ayurveda terapiyasi va boshqalarga iste'molchi xarajatlarining ko'payishi bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari, pandemiya davrida o'z-o'zini parvarish qilishga bo'lgan e'tibor va talab ortib borayotganligi sababli, mamlakat ichidagi transport (23,1%) va oziq-ovqat va ichimliklar segmenti (15,6%) prognoz davrida sezilarli o'sishga erishdi.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida asosiy xizmatlar ya'ni: joylashtirish va transport xizmatlari qatoriga wellness faoliyati xizmatlari ham asta – sekinlik bilan asosiylar qatoriga kirib bormoqda.

Ixtisoslashgan sayohatning boshqa shakllari singari, wellness sayohati ham turli – tuman sog'lomlashtirish manzilgohlariga ega. Har bir yo'nalish hamda har bir sayohatgoh o'zining mahalliy madaniyati, tabiiy boyliklari, taomlari va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan sog'lom turmush tarziga ega. Aqlli va ishbilarmon wellness sayohatchilari, ayniqsa ming yillik avlod vakillari - bu joy boshqa joydan farq qiladigan narsaga qiziqishadi. Ushbu noyob va haqiqiy tajribalar mahalliy shifo amaliyotiga asoslanishi mumkin; qadimiy ma'naviy an'analar; mahalliy o'simliklar va o'rmonlar; maxsus loylar, minerallar va suvlar; xalq arxitekturasini; mahalliy mahsulotlari va oshpazlik an'analari; tarix va madaniyat; va hokazo. Har bir yo'nalish har xil bo'lganligi sababli, wellness sayohatchilariga har doim o'ziga xos bir narsa taklif etiladi.

Global Wellness Institutining 2022 yil sarhisobiga ko'ra, sog'lomlashtirish turizm rivojlanishi bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan 20 ta mamlakat ro'yxati shakllangan.

1-jadval. Wellness turizmi rivojlangan mamlakatlar yigirmataligi¹

№	Mamlakatlar nomi	Wellness turizm daromadlari, (mln Aqsh dollarida)				Yillar kesimidagi tafovud (%)		2022 yilda sayohatlar soni, (mln kishi)
		2019	2020	2021	2022	2019-2020	2021-2022	
1	AQSH	263.5	147.3	198.7	255.6	-44.1	31.8	195.4
2	Germaniya	73.5	31.2	48.5	70.2	-57.5	49.9	61.6
3	Fransiya	34.7	22.1	28.9	35.5	-36.4	26.9	36.1
4	Avstriya	18.9	11.9	11.4	19.5	-36.8	27.9	16.7
5	Shvetsariya	15.5	9.4	11	17.7	-39.7	37.3	11.3
6	Yaponiya	26.6	10.3	10.6	17.6	-61.4	31.1	34.5
7	Italiya	14.5	7.5	10.9	15.7	-48.3	44.6	11.6
8	Buyuk Britaniya	15.1	4.9	11.4	15.6	-67.6	78.7	23.6
9	Avstraliya	14	7.9	9.9	14.4	-43.9	35.4	11.9
10	Meksika	12.5	5.9	10.2	13.8	-53.3	53.3	17.5
11	Ispaniya	10.8	3.5	6.1	11.4	-67.7	80.3	18.5
12	Xitoy	34.4	10.7	16	11.2	-68.9	2.3	40.4
13	Hindiston	13.3	3.5	6.1	11.4	-67.7	80.3	18.5
14	Kanada	13.9	7.1	6.8	11	-73.6	76.8	95.3
15	Tailand	16.9	4.2	2	7.8	-75.1	35.7	10.4
16	Daniya	3.8	4.3	4.9	6	12.6	18.4	6.3
17	Janubiy Koreya	8.3	4.4	5	5.4	-47.2	11.3	20
18	BAA	2.8	2.1	2.9	5.4	-26.3	61.2	1.9
19	Portugaliya	4.4	3	4.1	5.3	-32.7	34.2	5.8
20	Turkiya	5.7	1.5	3.2	4.8	-74.4	81.9	9.2

Ushbu jadvalda ko'rish mumkinki, Amerika va Yevropa davlatlari eng yuqori o'rinlarni egallagan. Bu ko'rsatkichlarni batavsil o'rganish natijasida:

¹ <https://globalwellnessinstitute.org/industry-research/featured-reports/>

- Wellness turizm infratuzilmasiga kiritilgan sarmoyalar, investitsiyalar;¹
- Mamlakat fuqarolarining yuqori daromadi;
- Insonlarning sog'lomlashtirish xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligi;
- Mamlakat tomonidan tashkiliy-siyosiy qo'llab –quvvatlash;
- Tabiiy resurslarining mavjudligi;²
- Davlatning inson salomatligi uchun g'amxo'rliqi;

va h.k kabi wellness turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida qayd etilgan.

O'zbekistonda yetarli darajada wellness turizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lib ushbu turizm turini takomillashtirishda **zarur** bo'lgan wellness xizmatlari mavjud maskanlar holatiga ko'ra, O'zbekistondagi sanatoriyalar 2023 yil holatiga ko'ra 99 tani tashkil etgan³, 2023 yil sentabr holatiga ko'ra esa wellness mehmonxonalar 41 tani⁴, xususiy klinikalar 802 ta⁵ bo'lib, shundan wellness xizmatlari mavjud xususiy klinikalar 70 tani⁶ tashkil etadi. Shuningdek turli hududlarda wellness markazlar (Hammom, fitness klublar va h.k) va tabiiy resurslardan tashkil topgan (Issiq qum, issiq buloq, chuchuk suv, quyosh tik tushadigan manzillar, tuzli g'orlar) insonlarning salomatligini tiklash va xordiq chiqarish uchun xizmat yuritib kelmoqda.

Demak, mamlakatda sog'lomlashtirish turizmini rivojlanishi uchun fuqarolarga shart –sharoit yaratib berish, jumladan, korxonalarining kasaba uyushmalari tomonidan chegirmali dasturlar taqdim etish, sherikchilik usulida sog'lomlashtirish zonalarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini yuqorilashda kadrlar malakasini oshirish, marketingdan samarali foydalanish kabi chora-tadbirlar qo'llansa, yurtimizda yana bir turizm turiga ehtiyoj oshadi.

Amaliyotda ushbu xizmatlar aksariyati sog'lom insonlar qatlamiga yo'naltirilgan bo'lib, ijtimoiy va jismoniy cheklavlarga ega guruhlar bu xizmatlardan foydalanishida ba'zi noqulayliklarni kuzatish mumkin.

Shu sababli, wellness turizmini **inklyuziv** asosda tashkil etish — ya'ni turli ijtimoiy qatlamlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, raqamli imkoniyatlari cheklangan guruhlar uchun qulay va teng xizmatlar yaratish — zamonaviy turizm strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Inklyuzivlik bu — barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish deganidir. Wellness turizm kontekstida bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy, iqtisodiy yoki jismoniy to'siqlarning mavjud emasligi;
- xizmat infratuzilmasining jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilganligi;
- madaniy va dini sezgirlikni inobatga olgan yondashuvlar;
- raqamli texnologiyalar orqali xizmatlarga kirish imkoniyatining ta'minlanishi.
- subsidiyalangan wellness dasturlari;
- davlat-xususiy sheriklik asosida arzonlashtirilgan xizmatlar;
- ijtimoiy toifadagi aholi uchun maxsus paketlar.

Jismoniy inklyuziya va infratuzilma

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun wellness xizmatlaridan foydalanishni qulaylashtirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- panduslar, liftlar, keng eshiklar kabi arxitektura yechimlari;
- braille yozuvi va audiogidlar;
- xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun inklyuziv xizmat bo'yicha treninglar.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG-2030) turizmga inklyuzivlik asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. O'zbekistonda, xususan Buxoro, Samarqand, Toshkent viloyatlarida wellness infratuzilmasi rivojlanmoqda. Ammo hali ham nogironlar uchun

¹ <https://www.cbi.eu/market-information/tourism/wellness-tourism/market-potential>

² <https://globalwellnessinstitute.org/geography-of-wellness/wellness-in-usa/>

³ <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=1665&Page=5>

⁴ booking.com saytidan muallif tahlili murojaat qilingan sana 02.09.23
(<https://www.booking.com/index.ru.html?label=gen>)

⁵ <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=107115>

⁶ <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=107115>

moslashtirilgan obyektlar, arzon wellness xizmatlari va inklyuziv turizm siyosati yetarli darajada shakllanmagan.

Xulosa

Inklyuzivlik konsepsiyasini wellness turizmida ijtimoiy adolat tamoyillari asosida rivojlanayotgan, har bir insonning sog'lig'ini tiklash huquqini kafolatlaydigan, teng va qulay muhit yaratishga qaratilgan tizimdir. O'zbekistonda ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun:

davlat siyosatini qayta ko'rib chiqish xususan: xizmatlarning inklyuzivligini ta'minlaydigan **milliy standartlar va litsenziya talablari** ishlab chiqilishi lozim; **nogironlar uchun qulay turizm infratuzilmasi** bo'yicha davlat standartlari (DST) joriy etilishi kerak; **xalqaro standartlar (ISO 21902:2021)** asosida wellness turizmni inkluziv xizmatlar bilan uyg'unlashtirish lozim.

- inklyuziv infratuzilmalarni barpo etish;
- kadrlarga maxsus tayyorgarlik berish;
- mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish;
- xorijiy tajribalarni o'zlashtirish zarur.

Inklyuziv wellness turizmi nafaqat inson salomatligi, balki jamiyat barqarorligi va birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNWTO (2020). *Accessibility and Inclusive Tourism Development*.
2. Smith, M., & Puczkó, L. (2009). *Health and Wellness Tourism*. Butterworth-Heinemann.
3. Buhalis, D., & Darcy, S. (2011). *Accessible Tourism: Concepts and Issues*. Channel View Publications.
4. World Bank (2017). *Tourism Skills and Inclusion Strategy*.
5. United Nations (2015). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*.
6. Xiang, Z., & Gretzel, U. (2010). *Role of social media in tourism*. *Tourism Management*, 31(2), 179–188.
7. Т.А.Бурменко, Байкальский государственный университет, г. Иркутск, Российская Федерация, К ВОПРОСУ О СОДЕРЖАНИИ ПОНЯТИЯ «ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЙ ТУРИЗМ» РЕГИОНАЛЬНАЯ И ОТРАСЛЕВАЯ ЭКОНОМИКА, 2016.26(1).42-49, - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-soderzhanii-ponyatiya-ozdorovitelnyy-turizm> (дата обращения: 17.02.2023).
8. Eva Csirmaz, Karoly Peto, University of Debrecen, Faculty of Economics and Business Administration, Hungary, "International trends in recreational and wellness tourism, *Procedia Economics and Finance* 32 (2015) 755 – 762, - URL: <https://www.scribd.com/document/467318363/International-Trends-in-Recreational-and-Wellness-Tourism> (дата обращения: 14.02.2023).
9. Galina Romanova, Alexandr Vetitnev and Frederic Dimanche "Health and wellness tourism", Russia, 2015 y, 237
10. <https://globalwellnessinstitute.org/> Global Wellness Institute
11. <https://www.researchandmarkets.com/reports/5669159/wellness-tourism-global-market-report-2022> Wellness Tourism research market report 2022
12. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/wellness-tourism-market> Grand view research
13. <https://booking.com>
14. <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=107115>